



2-bosqich 1-semestr.

13-mavzu:Muhammad Sharif Gulxaniyning
"Zarbulmasal" asari



TILAME



Гульхани

Adabiyot

Abdukadirova M.M



Reja:



TILAME

1. Gulxaniy hayoti va ijodi haqida ma'lumot.
2. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari haqida.
3. Asarning g'oyaviy yo'nalishi va mavzu ko'lami.
3. Asardagi timsollar.
5. Asarning badiiy xususiyatlari.



Tayanch atamalar:



TILAME

- **Masal**— so‘z san‘atidagi eng ko‘hna va qadimdan keng ommalashgan janr, nasriy yoki she’riy yo‘lda yoziladigan mo‘jaz hikoya.
- **Zarbulmasal**— masallar yig‘indisi.



End

X

Bu davr adabiyotining yana bir namoyonidasi Gulxaniy asli ismi Muhammad Sharif edi. U 1770 – yilda hozirgi Tojikistonning Tavildara tumanida tug'ilgan. Dastlab Namanganga kelib mardikorlik qiladi. Keyin Qo'qonga borib hammomda go'lhlilik qiladi, shu boisdan "Gulxaniy" taxallusi bilan ijod qilgan Uning mashhur asarlaridan biri "Zarbulmasal" asaridir.




TIIAME

Gulxaniy XVIII asrning oxiri, XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan o‘zbek mumtoz shoiri va yozuvchisidir. Gulxaniy XVIII asrning 70-yillarida tug‘ilgan va yoshligidan badiiy adabiyot bilan jiddiy shug‘ullanib, Qo‘qon adabiy muhitida e’tiborli o‘rin egallagan. Gulxaniy forsiy va turkiy tilda mahorat bilan qalam tebratgan zullisonayn shoir edi. O‘zbek mumtoz adabiyotida badiiy tasvir uslubiga ko‘ra Gulxaniy xalq tilini bilishda, uning so‘z boyligidan foydalanishda, nozik ifoda imkoniyatlarini ishga solishda yuksak mahorat sohibidir. Shoir “Gulxaniy” va “Jur’at” taxalluslari bilan ijod etgan.



**Gulxaniyning “Zarbulmasal”asari
juda mashhurdir.**






- Gulxaniy adabiy merosini, asosan, ikki turdag'i asarlar forsiy va turkiy tillardagi lirik she'rlari hamda "Zarbulmasal" tashkil etadi.
- Shoir "Zarbulmasal" dagi singari,lirik she'rlarida ham o'ta an'anaviylik va kitobiylidandan qochgan,xalqona soddalikka intilgan.



TIIAME




- Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari
- XVIII- XIX asrlar o‘zbek nasrining nodir namunasidir. Asarda Yapaloqqush bilan Boyo‘g‘lining quda-anda bo‘lishi, Yapaloqqushning o‘g‘li Kulonkirga Boyo‘g‘lining qizi Gunashbonuning olib berilishi sarguzashtlari majoziy, o‘tkir hajviya tarzida tasvirlanadi. Gulxaniy qushlarning o‘zaro murakkab munosabatlari asosida o‘z davri ijtimoiy hayotining tanqidiy manzarasini yaratadi.

- Asarning “Zarbulmasal” deb nomlanishiga sabab, unda yozuvchi xalq tilidagi maqol va masallarni tasvirlanayotgan hayotiy voqealarga mutanosib ravishda zarblast usulida ish tutgan.”Zarbulmasal” mundarijasiga “Toshbaqa bilan chayon”, ”Tuya bilan bo’taloq”, ”Maymun bilan Najjor” kabi masal va 400 dan ortiq maqol, talay xalqona iboralar voqealar izchilligiga singdirib yuborilgan.



TIAME





I.”Zarbulmasal” qahramonlari:



TIIAME

1.	Bosh qahramonlar	Boyo‘g‘li, Yapaloqqush
2.	Ikkinchidarajali qahramonlar	Gunashbonu — Boyo‘g‘lining qizi, Kulonkir sulton — Yapaloqqushning o‘g‘li, Ko‘rqush — Yapaloqqushning sovchisi, Hudhud, Malikshohin — qushlar podshosi, Sho‘ranul — yapaloqqushning do‘sti, Kordon — shohning xazinachisi



“Tarmoqlar” metodi asosida ishlash.

II.”Zarbulmasal”dagi har bir masalga xos maqollar keltirish.



TIIAME

“Kabutar bilan zog”	“Har kim o‘z o‘rnini bilishi lozim”
“Maymun bilan najor”	“Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘lar”
“Tuya bilan bo‘taloq”	“Suvsizlikdan baliq o‘lsa, daryoga ne g‘am”
“Toshbaqa bilan chayon”	“Chayonning kasbi nish urmoq”
“Dumsiz eshak”	“Ko‘pga Yugurgan -boridan quruq qolar”
“Yolgonchi tuya”	“Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi”
“Yodgor po‘stindo‘z”	“Maqtanma g‘oz- hunaring oz”



TIIAME

III.Lug‘at ishi o‘tkaziladi.

Bunda o‘quvchilarning til bilish qobiliyatlari
aniqlanadi.

Forschada	O‘zbekchada	Ruschada	Inglizchada
Zog‘	Qarg‘a	Vorona	Crow
Kabutar	Kaptar	Golub	Dove
Teva	Tuya	Verblyud	Camel
Sangpo‘sht	Toshbaqa	Cherepaxa	Tortoise
Kajdum	Chayon	Skorpion	Sckorpion
Xar	Eshak	Osyol	Donkey
Modar	Ona	Mama	Mother
Nav	Yangi	Noviy	New



TIIAME

Gulxaniy ijodi o`zbek olimlari A.Qayumov,
R.Muqimov, F.Ishoqov, M.Qo`shtonov,
M.Qo`shmoqov, A.Asrarov v.b. olimlar
tomonidan o`rganilgan.

Nashr qilingan asarlari:

Gulxaniy. Zarbulmasal (nashrga tayyorl.
F.Ishoqov). -T: 1958;

O`zbek adabiyoti. 4 jildlik 3-jild. -T: 1959.





“Ikkinchisi ortiqcha” o‘yini



TILAME

1.

A. Muhammadsharif Gulxaniy.

B. Muhammadrizo Gulxaniy.

2.

A. Qo‘qon xonligida yashagan.

B. Buxoro amirligida yashagan.

3.

A. G‘azallari, ruboilylari, masallari yetib kelgan.

B. 12 ta g‘azali, 1ta qasidasi, “Zarbulmasal” asari yetib kelgan

4.

A. Didaktik asarlar yaratgan.

B. Hajviy asarlar yaratgan.

5.

A. Qasidasi Amir Olimxonga bag‘ishlangan.

B. Qasidasi Amir Umarxon ga bag‘ishlangan.



6. A. “Zarbulmasal” arabchadan olingen bo‘lib, “masallar yig`indisi” degan ma’noni anglatadi.
- B. “Zarbulmasal” forschadan olingen bo‘lib, “ertaklar to‘plami” degan ma’noni anglatadi.
7. A.“Zarbulmasal” asarida 20 dan ortiq hikoyatlar va 500 dan ortiq maqollar bor.
- B. Zarbulmasal” asarida 15 dan ortiq hikoyatlar va 400 dan ortiq maqollar bor.
8. A. Asar xalq orasida **“Ko‘rqush hikoyasi”** nomi bilan mashhur.
- B. Asar xalq orasida **“Yapaloqqush hikoyasi”** nomi bilan mashhur.
9. A. Asar qahramonlari yirtqich qushlar.
- B. Asar qahramonlari yovvoyi hayvonlar.
10. A. Asarda qalin evaziga 1000 tilla so‘raladi.
- B. Asarda qalin evaziga 1000 ta vayrona so‘raladi.



TIIAME



To‘g‘ri javoblar



TILAME

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	A	B	B	B	A	B	B	A	B

Vazifani baholash:

10-9 ta to`g`ri: “5”ball

8-7 ta to`g`ri: “4” ball

6-5 ta to`g`ri: “3” ball

4-3 ta to`g`ri: “2” ball

1-2 ta to`g`ri: “1” ball



Mavzu bo‘yicha testlar.



TIIAME

- 1."Tuya bilan bo`taloq" hikoyasi kimga so‘zlab berilgan?
a) Ko‘rqush b) Yapaloqqush c) Hudhud d) Boyo‘g‘li
- 2."Zarbulmasal"da qalin uchun nechta shahar va qishloqdagi chordevorlar berildi?
a) 26ta b) 25ta c) 22ta d) 23ta
- 3."Dumsiz eshak" masali kim tomonidan hikoya qilingan?
a) Kordon b) Sho‘ranul c) Kuykunak d) Turumtoy
4. "Uyda chaksa uni yo‘q, tom boshida qo‘sh tanur" maqolini kim aytgan?
a) Ko‘rqush b) Yapaloqqush c) Hudhud d) Boyo‘g‘li



TIIAME

Uyga vazifa “Zarbulmasal”asarini
o‘qish.Timsollarga tavsif berish.